


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 4, Issue 1 **2026**

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

4 JILD, 1 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 4, HOMEP 1

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 4, ISSUE 1



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MA'MUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2026-1>

Бош муҳаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Matyakubov Umidjon Raximovich
(i.f.d., prof.)

Бош муҳаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
(PhD., dots.)

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Galiyeva Margarita Rafaelovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)

Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent

Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),

dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor

Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Grodno davlat universiteti Belorusiya

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyazova Nasiba Ramatillayevna

Psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'g'li

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Boltayev Abdurahim Amanovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Zoirov Erkin Xalilovich

Falsafa fanlari doktori, dotsent

Buxoro davlat texnika universiteti

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun
Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sultonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации
основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением
№ 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: X. Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

TARIX

1. Toshpolatov Bekzod Shuxratovich, Ganiyeva Nafisa Rustamkulovna ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АЁЛЛАРНИНГ ЎРНИ ВА ГЕНДЕР ТЕНГЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ: ХАЛҚАРО ЁНДАШУВЛАР ВА ЎЗБЕКИСТОН ТАЖРИБАСИ ТАҲЛИЛИ.....	7
2. Bekzod Toshpolatov, Nafisa Ganiyeva ENSURING GENDER BALANCE IN THE EDUCATION AND SCIENCE SYSTEM: THE STRATEGIC ROLE OF WOMEN'S PARTICIPATION AND THE EXPERIENCE OF UZBEKISTAN.....	11
3. Sharopova Nigora Akbarovna UMUMTA'LIM MAKTABLARI TIZIMIDA IXTISOSLASHGAN MAKTAB-INTERNATLARI FAOLIYATI (O'ZBEKISTON JANUBIY VILOYATLARI MISOLIDA).....	15
4. Boboqulov Lochinbek Zikir o'g'li ANTI-K VA ILK O'RTA ASRLARDA SO'G'D VA XITOIY MADANIY ALOQALARI.....	19
5. Bekimbetov Bahodir Mirzabaevich XX ASRNIH IKKINCHI YRMIIDAGI ILMIIY MUHOZARALARDA OROL DENGIZI MUAMMOSI: INKIROZ, OGOHLANTIIRISHLAR VA HAL QILISH IULLARI.....	23
6. Abdullayev Timur Pulatovich, Sapayeva Sadoqat Odilbekovna MEHNAT MIGRATSIYASI: NAZARIY YONDASHUVLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	28
7. Abdullayev Timur Pulatovich., Jabbarov Avazbek Adxambek o'g'li. MEHNAT MIGRATSIYASI VA MILLIY IDENTITET.....	34
8. Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li. QADIMGI XORAZMDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINING RIVOJIDA SAVDO YO'LLARINING O'RNI.....	40
9. Tadjiyeva Nargiza Djumabayevna. XORAZM VILOYATI IJTIMOII-IQTISODII HAYOTIDA TATAR DIASPORASINING TUTGAN O'RNI.....	44

FILOLOGIYA

1. Sultanova Fazilat, Ro'ziyeva Muhayyo Erkinovna MODERN PEDAGOGICAL APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES (ENGLISH LANGUAGE): A COMPETENCY-BASED PERSPECTIVE.....	48
2. Qo'shnazarova Mehribon Qo'zibayevna XORAZM TARIXNAVISLIK MAKTABI ASARLARIDA KASB-HUNAR LEKSIKASINING SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	52
3. Ro'zimova Dildora Khujaakhmedovna THE THEORY OF PROJECT BASED LEARNING IN TESOL.....	57

IQTISOD

1. Pirnafasov Sarvar Bardiboyevich, Sattarova Mahfuza Dilshodbekovna YASHIRIN IQTISODIIYOTNING MINTAQA IQTISODIIY O'SISHIGA SALBIY TA'SIRLARINI BARTARAF QILISH.....	61
---	----

2. Egamberdiev Egamberdi

THE ROLE OF INTEGRATED DIGITAL MARKETING STRATEGIES IN ENHANCING SME COMPETITIVENESS IN UZBEKISTAN.....65

3. Matkarimov Mansur Maksudovich

O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISHNING IQTISODIY-SIYOSIY TAHLILI....69

PEDAGOGIKA VA ANIQ FANLAR

1. Yuldosheva Sabohat Norimon qizi

GEOMETRIK ISBOTLASHDA DEDUKTIV–INDUKTIV YONDASHUVLARNING UYG‘UNLASHUVI.....75

FALSAFA

1. Майлиев Азамат Фарходович

ЁШЛАР ТАФАККУРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ВА НАНОТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ.....78

UDK: 314.74(575.1:430)

Abdullayev Timur PulatovichMa'mun universiteti dotsent.
mustaqil izlanuvchi.**Jabbarov Avazbek Adxambek o'g'li**

Ma'mun universiteti magistranti

<https://orcid.org/0000-0003-4037-7876>

E-mail:timurabdullaev4466@gmail.com

E-mail:avazbekjabborov7357@gmail.com

MEHNAT MIGRATSIYASI VA MILLIY IDENTITET.<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18519534>**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekistonlik mehnat migrantlarining Germaniya, Rossiya, Qozog'iston va Janubiy Koreyadagi tajribalari hamda milliy identitetiga ta'siri tahlil qilinadi. Til va madaniyat yaqinligi Rossiya va Qozog'istonda moslashuvni osonlashtiradi, biroq ayrim ksenofobiya holatlari kuzatiladi. Janubiy Koreyada farqlar sabab diaspora doirasida moslashuv ustun. Germaniyada esa malakali migrantlar oqimi ortmoqda. Xulosa sifatida migrantlar huquqlarini himoya qilish va integratsiyani kuchaytirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: mehnat migratsiyasi; milliy identitet; madaniy identitet; assimilyatsiya; integratsiya; ijtimoiy moslashuv; O'zbekiston; diaspora.

ABSTRACT

This article analyzes the experiences of Uzbek labor migrants in Germany, Russia, Kazakhstan, and South Korea, and the impact of migration on their national identity. Cultural and linguistic similarities facilitate adaptation in Russia and Kazakhstan, though instances of xenophobia are noted. In South Korea, due to cultural differences, adaptation mainly occurs within diaspora communities. In Germany, the flow of skilled migrants is increasing. The article concludes with recommendations to protect migrants' rights and strengthen their social integration.

Keywords: labor migration; national identity; cultural identity; assimilation; integration; social adaptation; Uzbekistan; diaspora.

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется опыт трудовых мигрантов из Узбекистана в Германии, России, Казахстане и Южной Корее, а также влияние миграции на их национальную идентичность. Языковая и культурная близость облегчает адаптацию в России и Казахстане, хотя отмечаются случаи ксенофобии. В Южной Корее из-за культурных различий адаптация происходит в рамках диаспоры. В Германии наблюдается рост потока квалифицированных кадров. В заключение предлагаются меры по защите прав мигрантов и укреплению их социальной интеграции.

Ключевые слова: трудовая миграция; национальная идентичность; культурная идентичность; ассимиляция; интеграция; социальная адаптация; Узбекистан; диаспора.

Kirish

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng yuzaga kelgan iqtisodiy qiyinchiliklar va ish o'rinlarining yetishmasligi tufayli millionlab fuqarolar xorijga ish izlab ketishga majbur bo'ldi. Bugungi kunda mehnat migratsiyasi O'zbekiston jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutadi – 2023-yilda migrantlar yuborgan pul o'tkazmalari mamlakat YAIMning qariyb 18% ini tashkil etdi[1]. Shu bois mehnat migratsiyasining nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-madaniy oqibatlari ham dolzarb tadqiqot mavzusiga aylangan. Uzoq muddat chet elda yashayotgan migrantlarning milliy o'zligini anglash, ona til va madaniyatni saqlashi qanday o'zgarayotgani, ularning qabul qiluvchi jamiyatga assimilyatsiya va integratsiya darajasi qanday ekanligi ilmiy jamoatchilik e'tiborini tortmoqda. Mazkur maqolada O'zbekistonning eng yirik mehnat migratsiyasi yo'nalishlari – Rossiya, Qozog'iston, Janubiy Koreya va Germaniya misolida mehnat migratsiyasining milliy identitetga ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi. Tanlangan davlatlar geografik va madaniy jihatdan bir-biridan farq qilgani sababli, har birida o'zbekistonlik migrantlar uchun o'ziga xos imkoniyatlar va sinovlar mavjud. Masalan, Rossiya va Qozog'iston bilan tarixiy aloqalar va til yaqinligi migrantlarga ma'lum darajada moslashuvni osonlashtirsa, Janubiy Koreya va Germaniya mutlaqo yangi til-madaniy muhitni tashkil etadi. Shuningdek, Rossiya va Qozog'istonda markaziy osiyolik migrantlar muhojirlar umumiy sonining sezilarli qismini tashkil etsa, Germaniya va Janubiy Koreyada o'zbekistonliklar nisbatan ozchilikni tashkil etadi. Maqolaning maqsadi – turli davlatlarda mehnat qilayotgan o'zbekistonlik migrantlarning ijtimoiy va madaniy moslashuvi jarayonlarini solishtirib, ularning milliy (etnik) identitetida kechayotgan o'zgarishlarni va duch kelayotgan muammolarni aniqlash hamda shu sohadagi yangi tendensiyalarni yoritishdir. Tahlil yakunida mehnat migratsiyasi jarayonlarini takomillashtirish, migrantlarning milliy o'zligini saqlashiga ko'maklashish va ijtimoiy integratsiyasini yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Migratsiya oqimlaridagi o'zgarishlar: So'nggi yillarda O'zbekistondan chet ellarga mehnat migratsiyasi ko'lam va yo'nalishlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatildi. 2023-yil oxirida xorijdagi o'zbekistonlik mehnat migrantlarining soni qariyb 2 millionga yetgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich bir yil ichida uchdan bir qismga qisqarib, taxminan 1,35 million nafarni tashkil etdi[2]. Bu pasayish asosan Rossiyadagi migrantlar sonining kamayishi (Rossiya–Ukraina mojarosi va safarbarlik e'lon qilinishi kabi omillar tufayli) bilan bog'liq. Natijada ko'plab o'zbekistonliklar an'anaviy yetakchi yo'nalish bo'lgan Rossiyadan voz kechib, qo'shni Qozog'istonda ish izlashni afzal ko'rmoqda[1]. Haqiqatan ham, 2024-yilda Qozog'istonda ishlayotgan o'zbekistonliklar soni keskin oshib, 300 ming nafardan ortdi. Shuningdek, Janubiy Koreya va Yevropa davlatlariga (jumladan Germaniyaga) ketayotgan migrantlar ulushi so'nggi yillarda ortib bormoqda. Janubiy Koreya hukumati chet ellik ishchilar uchun kvotalarni kengaytirishi natijasida ushbu mamlakatda o'zbekistonliklar soni 2025-yilga kelib qariyb 100 ming nafarga yetdi [3]. Germaniyada esa Markaziy Osiyo mamlakatlaridan chiqqan muhojirlar soni an'anaviy ravishda juda kam bo'lgan bo'lsa-da, 2024-yilda Germaniya va O'zbekiston hukumatlari o'rtasida imzolangan yangi bitim ushbu mamlakatga yuqori malakali o'zbek mutaxassislarini jalb etishni faollashtirdi [4]. Umuman olganda, O'zbekiston mehnat migratsiyasining geografiasini diversifikatsiya qilinmoqda – Rossiya ulushi pasayib, boshqa davlatlar bilan mehnat aloqalari kengaymoqda. Bu esa migrantlar uchun yangi imkoniyatlar bilan birga, yangi moslashuv sinovlarini ham yuzaga keltirmoqda.

Rossiya Federatsiyasi: Rossiya uzoq yillar davomida O'zbekistonlik mehnat migrantlari uchun asosiy manzil bo'ldi. Tarixiy va madaniy-tildagi yaqindalik (rus tilining keng tarqalganligi) migrantlarga mahalliy jamiyatga qo'shilishni yengillashtiradi. Shu sabab ko'plab o'zbekistonliklar Rossiyada o'zini erkinroq his qilib, mahalliy urf-odatlariga tez moslashadi[5]. Katta markaziy osiyolik diasporasi kuchli jamoaviy tarmoq yaratdi: Moskvada, Sankt-Peterburg va boshqa shaharlarda o'zbek madaniy markazlari, restoran va jamoat uyushmalari faoliyat yuritadi. Bu

tuzilmalar migrantlarga ona yurt madaniyatini eslab yashash va bir-biriga ko'maklashish imkonini beradi.

Biroq Rossiyada Markaziy Osiyo migrantlariga nisbatan salbiy qarashlar va ksenofobiya saqlanib qoladi. Ayrim siyosatchilar migrantlarni "mahalliy aholi ishini tortib olmoqda" deb ayblaydi, natijada ular ijtimoiy izolyatsiyaga uchraydi. Ko'pchilik o'zbekistonlik migrantlar Rossiyaning "pul topish joyi"[6] deb bilib, vaqtinchalik keladi; keyin vataniga qaytishni rejalashtiradi. Ularning huquqiy-madaniy cheklavlari (noqulay ish sharoiti, hujjatsiz ishlash) integratsiyaga to'siq bo'ladi. Shu bilan birga, ko'plab migrantlar iqtisodiy faoliyatga qo'shilib, milliy xususiyatlarini saqlashga harakat qiladi – ularni integratsiya modeliga yaqin deb baholash mumkin.

Qozog'iston: Qozog'iston O'zbekiston bilan bevosita chegaradosh va tarixan madaniy-til jihatdan o'xshashligi sababli o'zbek migrantlari uchun qulay makondir. O'zbekistonliklar va mahalliy aholi o'rtasidagi urf-odat va umumiy dini (Islom) hamda rus tilida muloqot qilish imkoniyati ularning ijtimoiy moslashuvini yengillashtiradi. Shu sababli aksariyat o'zbekistonliklar Qozog'istonda o'zlarini "begona"[7] deb his qilmaydi.

Janubiy Qozog'istondagi tarixiy o'zbek diasporasi (1990-yillardan buyon yirik o'zbek jamoalari) madaniy markazlar, maktablar va gazetalari bilan mustahkam tarmoq yaratgan. Yangi kelgan migrantlar shu hamyurt jamoalari bilan bog'lanib, ona tilida muloqot qilish va milliy an'analarni saqlab qolish imkoniga ega bo'ladi. Natijada Qozog'istondagi o'zbekistonlik mehnat migrantlarining aksariyati iqtisodiy va ijtimoiy hayotga qo'shilib, o'zbek madaniy merosini saqlab qolishga intiladi.

Biroq Qozog'istonda ham to'liq assimilyatsiya kam uchraydi: ko'pchilik o'zbekistonliklar mahalliy jamiyatda "mehmon ishchi" maqomini saqlaydi – ular rus tilida yoki ona tilida muloqot qilib, chuqur integratsiyalashmaydi. Ayrim vaqtlarda mahalliy aholi immigratsiyani ehtiyotkorlik bilan qabul qiladi, ayniqsa iqtisodiy qiyinchilik paytida chet elliklar mehnatiga tanqidiy qaraydi. Biroq so'nggi yillarda Qozog'iston hukumati mehnat migrantlarini qabul qilish tartibini soddalashtirish ustida ish olib bormoqda. Shu bois, Qozog'istonda o'zbekistonlik migrantlar uchun huquqiy sharoitlar yaxshilanmoqda.

Janubiy Koreya: Janubiy Koreyaga o'zbekistonliklarning mehnat migratsiyasi nisbatan yangi hodisa bo'lib, 2000-yillardan boshlab rivojlandi. Janubiy Koreyada til va turmush tarzidagi keskin farqlar hamda o'zbek diasporasining kichikligi sabab migrantlar ko'pincha jamiyat chetida qolmoqda. Ko'pchilik o'zbekistonliklar vaqtincha mehnat shartnomasi bilan borib, muddati tugagach vatanga qaytishni rejalashtiradi – shu bois koreys tilini to'liq o'rganishga yoki fuqarolik olishga qiziqish past bo'ladi. Migrantlar asosan o'z milliy-diniy urf-odatlarini saqlagan holda diaspora ichida yashashga moyil (separatsiya), ayrimlari esa ayrim odatlarni tark etib, koreys jamiyatiga moslashishga intilmoqda (qisman assimilyatsiya)[8]. Koreya jamiyatining milliy yakka-tipliligi va xorijliklarga nisbatan konservativ munosabati tufayli, o'zbekistonliklar uchun bu muhitda integratsiyalashish ancha murakkab. Natijada Janubiy Koreyadagi o'zbeklar diasporasi ichida yopiq turmush kechirish yoki cheklangan integratsiyaga erishish holatlari ko'p uchramoqda, ba'zan esa ular o'zlarini marginal qatlamdek seza boshlashadi.

Germaniya: Germaniya uzoq geografik masofa bo'lsa-da, so'nggi yillarda o'zbekistonlik migrantlar uchun jozibali mehnat bozori bo'lib bormoqda. Sovet davrida bir guruh nemis millatiga mansub o'zbekistonliklar (Volga nemislari) Germaniyaga ko'chgan bo'lsa-da, hozirgi oqim asosan etnik o'zbek va yuqori malakali mutaxassislardan iborat. So'nggi yillarda Germaniya bilan hamshira, muhandis va IT-mutaxassislar uchun yangi mehnat bitimlari imzolandi, shu sababli O'zbekistonlik migrantlar oqimi ortishi kutilmoqda. Shu bilan birga, Germaniyadagi o'zbek diasporasi hanuz kichik – bu ularni ba'zan mahalliy stereotiplardan himoya qilgani holda, mahalliy muhitga assimilyatsiya xavfini ham oshiradi[9].

Shu bois, ko'plab o'zbekistonliklar Germaniyada nemis tilini o'rganib, ish va ijtimoiy hayotda faol qatnashmoqda. Germaniya hukumati yangi kelganlarga nemis tili, madaniy va huquqiy kurslar orqali integratsiya dasturlarini taklif qilmoqda. Biroq ayrim kasb egalari (masalan, tibbiyot sohasidagi mutaxassislar) til va diplom tan olinishi muammolariga duch kelmoqda. Hozirgi kunda ko'plab malakali o'zbekistonlik migrantlar Germaniyada doimiy yashash va fuqarolik olish

imkoniyatini izlayapti[10], bu esa kelajakda ularning assimilyatsiyalanishini tezlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, diasporaning faoliyati kuchaygani sayin yangi kelganlar ona madaniyatini saqlab qolishga intilmoqda.

Milliy identitet va moslashuv tahlili: Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbekistonlik mehnat migrantlarining qabul qiluvchi jamiyatga moslashuvi har bir mamlakatda turlicha kechmoqda. Berry [11] taklif etgan akkulturratsiya modeliga muvofiq, migrantlar turli kontekstlarda to'rt xil yo'nalishda harakat qilishi mumkin: assimilyatsiya (o'z madaniyatidan voz kechib, mezbon jamiyatga to'liq singish), integratsiya (ikkala madaniyatga moslashish), separatsiya (faqat o'z madaniyatini saqlab, mezbon jamiyatdan chetda qolish) va marginalizatsiya (ikkala madaniyatga to'liq mansub bo'la olmaslik). Amaliyotda migrantlar ko'pincha bu holatlar o'rtasida oraliq yo'llarni tanlaydi. Rossiya va Qozog'iston misolida ko'plab o'zbekistonliklar integratsiya modelini namoyish etayotganini ko'rdik – ular rus yoki qozoq tilida so'zlashib, mahalliy mehnat bozoriga kirishadi, shu bilan birga o'z dini va urf-odatlarini ham saqlashga intiladi. Janubiy Koreyada esa diasporaning kichikligi va madaniy tafovutlarning kattaligi sabab separatsiya va marginalizatsiya holatlari ko'proq kuzatiladi: migrantlar diaspora ichida yopiqlashib qoladi yoki mezbon jamiyatga yuzaki moslashadi. Germaniyada o'zbekistonliklar integratsiyasi hozircha erta bosqichda, lekin kelgusida asosan malakali yosh kadrlar oqimi bo'lgani bois, ular orasida assimilyatsiya (yangi jamiyatga to'liq singish) hollari yuqori bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, Germaniyaning multikultural siyosati tufayli migrantlardan milliy o'zligini batamom tark etish talab qilinmaydi – aksincha, ularning madaniyatini hurmat qilish rag'batlantiriladi. Umuman, moslashuvning ushbu jarayonlari shuni ko'rsatadiki, mezbon jamiyatning o'ziga xos shart-sharoitlari (tarixiy yaqinlik, immigratsiya siyosati, mahalliy aholining munosabati, diaspora ko'lamiga qarab) migrantlarning identiteti evolyutsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda.

Tendensiyalar va ijobiy o'zgarishlar: So'nggi paytlarda O'zbekistonda mehnat migratsiyasini boshqarish borasida ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, hukumat tashkiliy migratsiya amaliyotini faol rivojlantirmoqda – 2024-yilda 36 ta davlatdagi ish beruvchilar bilan 120 dan ortiq bitimlar imzolaniib, 160 mingdan ziyod fuqaro rasmiy kanallar orqali ishga yuborildi. Bu ko'rsatkich avvalgi yillarga nisbatan bir necha barobar ko'p bo'lib, yangi yo'nalishlarga (masalan, Xorvatiya, Polsha, Yaponiya kabi ilgari noma'lum bo'lgan bozorlarga) chiqish imkonini berdi. Bundan tashqari, chet elga ketayotgan migrantlar uchun til va madaniy kurslar joriy etilmoqda – masalan, Janubiy Koreyaga jo'nayotganlar uchun qisqa muddatli koreys tili va madaniyat kurslari, Germaniyaga ketayotgan tibbiyot xodimlari uchun intensiv nemis tili va kasbiy moslashuv treninglari tashkil qilinmoqda [12]. Yana bir tendensiya – mehnat migrantlari oqimini tartibga solish maqsadida xalqaro hamkorlikning kuchayishi. Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi davlatlar bilan imzolangan kelishuvlar migrantlar uchun huquqiy sharoitlarni yaxshilamoqda (masalan, tildan oldindan imtihon topshirish, mehnat shartlarini rasmiylashtirish). Shu bilan birga, O'zbekiston 2020-yildan boshlab Yevrosiyo Iqtisodiy Ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi – agar to'laqonli a'zo bo'lsa, Rossiya va Qozog'istonda ishlayotgan fuqarolar uchun rasmiy maqom va ijtimoiy kafolatlar kengayishi kutiladi. Nihoyat, diaspora jamoalarining ham ijobiy roli e'tiborga molik: o'zbekistonlik migrantlar xorijdagi turmush tarzi va mehnatsevarligi bilan mahalliy jamiyatlarda yaxshi obro' qozonmoqda. Masalan, Janubiy Koreyada o'zbek ishchilari halol va mehnatsevarligi bilan ajralib turib, koreys ish beruvchilarning ishonchini qozongan – bu orqali Koreya jamiyatida O'zbekiston haqidagi tasavvurlar ijobiy tomonga o'zgarmoqda. Xuddi shunday, Germaniya va Rossiya kabi davlatlarda ham o'zbek diasporalari milliy madaniyat va an'analarni namoyish etuvchi tadbirlar o'tkazmoqda (Navro'z bayramlari, madaniy festivallar). Bunday tadbirlar orqali migrantlar nafaqat o'z identitetini saqlab qolmoqda, balki mahalliy jamoaga ham o'z madaniyatini tanishtirib, ikki tomonlama integratsiyaga hissa qo'shmoqda.

Xulosa

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, mehnat migratsiyasi jarayonlari o'zbekistonlik migrantlarning milliy identitetiga turlicha ta'sir ko'rsatmoqda. Migrantlarning madaniy moslashuvi asosan mezbon mamlakatning tarixiy-madaniy yaqinligi, immigratsiya siyosati, mahalliy jamiyatning migrantlarga munosabati va diaspora jamoalarining mavjudligiga bog'liq holda

muvaffaqiyatli yoki muammoli kechmoqda. Masalan, Rossiya va Qozog'iston sharoitida o'zbekistonliklar asosan integratsiya modelida yashab, o'z etnik va diniy identitetlarini ma'lum darajada saqlab jamiyat hayotida ishtirok etmoqda; Janubiy Koreyada esa keskin madaniy tafovutlar sabab diaspora doirasida yashashga majbur bo'lmoqda yoki ayrim hollarda marginalizatsiyaga uchramoqda. Germaniyada endigina shakllanayotgan o'zbek diasporasi istiqbolda kuchayishi va ko'p madaniyatli muhitda milliy identitetini saqlab integratsiyalashuvi uchun imkoniyatlar mavjud. So'nggi yillarda mehnat migratsiyasi oqimlarida muhim tendensiyalar yuzaga chiqdi – Rossiyaga qaramlik kamayib, yangi yo'nalishlar (Janubiy Koreya, Yaqin Sharq, Yevropa) paydo bo'lmoqda; davlat esa migratsiya jarayonlarini tartibga solish va diversifikatsiya qilishga kirishdi. Bu o'zgarishlar migrantlar hayotiga yangi imkoniyatlar bilan birga yangi muammolarni ham olib kelmoqda, jumladan har bir yangi jamiyatga moslashish jarayonida migrant o'z milliy o'zligini qay darajada saqlashi va yangi madaniyatni qay darajada qabul qilishi lozimligi dolzarb masalaga aylandi. Quyida mazkur tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan asosiy takliflar keltiriladi:

Migratsiyaga jo'nashdan oldin maxsus o'quv kurslarini kengaytirish: Chet elga ishga ketayotgan fuqarolar uchun til o'rgatish bilan birga mezbon mamlakatning qonun-qoidalari, urf-odatlar va psixologik xususiyatlari bo'yicha tayyorgarlik dasturlarini kuchaytirish zarur. Bu chora migrantlarga begona muhitda o'zini erkinroq tutish va milliy identitetini yo'qotmagan holda moslashishga ko'maklashadi.

Diaspora bilan aloqalarni mustahkamlash: Xorijdagi o'zbek diasporasi bilan muntazam aloqani yo'lga qo'yish va ularni qo'llab-quvvatlash lozim. Elchixonalar qoshida o'zbek madaniy markazlarini tashkil etib, ularda ona tili kurslari, milliy bayramlar, huquqiy va psixologik maslahat xizmatlarini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq. Bu yangi kelgan migrantlarga "uy muhitini" yaratib, ularning identitetini saqlashga va moslashuviga yordam beradi.

Mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish: Hukumatlararo kelishuvlar doirasida o'zbekistonlik migrantlarning mehnat va ijtimoiy huquqlarini xalqaro darajada kafolatlash muhim. Rossiya va Qozog'iston kabi davlatlarda mehnat patentlari va ruxsatnomalarini rasmiylashtirishni soddalashtirish, vositachilikdagi korrupsiyani tugatish kerak. Janubiy Koreya, Germaniya kabi mamlakatlar bilan esa migrantlar mehnat sharoitlarini monitoring qilish va muammolarni hal etish bo'yicha qo'shma mexanizmlarni joriy etish lozim.

Migrantlarning ijtimoiy integratsiyasini yaxshilash: Qabul qiluvchi mamlakatlar (ayniqsa Rossiya va Qozog'iston) Markaziy Osiyo migrantlari uchun maxsus integratsiya kurslari (til, huquqiy va madaniy treninglar)ni taqdim etishi tavsiya etiladi. Janubiy Koreyada mavjud "multikultural markazlar" faoliyatini takomillashtirib, ularda halol ovqat va diniy ehtiyojlar bo'yicha ma'lumot beruvchi dasturlarni kengaytirish lozim. Germaniyada esa integratsiya kurslariga o'zbekistonliklarni faol jalb qilish va ularga yetarli resurs ajratish zarur.

Mahalliy jamiyatda bag'rikenglikni oshirish: Migrantlarga nisbatan salbiy stereotiplarni yengish uchun jamoatchilikni xabardor qilish kampaniyalarini yo'lga qo'yish lozim. Ommaviy axborot vositalarida migrantlarning jamiyatga qo'shayotgan hissasi haqida ijobiy materiallar berish, mahalliy aholi va muhojirlar o'rtasida sport musobaqalari va madaniy tadbirlar uyushtirish orqali "begonalashtirish" muhitini yumshatish mumkin. Bu mahalliy jamiyatda ham migrantlar madaniyatiga hurmatni oshirib, ularning o'z identitetidan uyalmasdan faxrlanishlariga zamin yaratadi.

Diasporaning yosh avlodiga ko'mak: Xorijdagi o'zbek oilalari farzandlari uchun ona tili va adabiyoti bo'yicha ta'lim imkoniyatlarini yaratish lozim. Buning uchun diaspora maktablariga darsliklar yetkazish, onlayn darslar va platformalar tashkil etish mumkin. Masalan, hozirda Telegram va YouTube orqali chet eldagi bolalarga o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha nodavlat tashabbuslar paydo bo'lgan – bu kabi loyihalarni davlat miqyosida qo'llab-quvvatlash zarur.

Qaytgan migrantlarni reintegratsiya qilish: Chet elda uzoq yillar ishlagan va vatanga qaytgan fuqarolarni jamiyatga jalb etish uchun maxsus reintegratsiya dasturlari zarur. Qaytgan migrantlarni ishga joylashtirish, kichik biznes ochishi uchun kredit va grantlar ajratish, psixologik moslashuviga ko'maklashish kabi chora-tadbirlar ular o'z yurtida begona bo'lib qolmasligi uchun muhim. Bu

orqali migrantlar chet elda orttirgan tajribasini yurt rivojiga safarbar qilib, milliy identitetini qaytadan mustahkamlashi mumkin.

Mehnat migratsiyasi globallashuv davrida qochib bo'lmaz jarayon bo'lib, u shaxs identitetida muayyan o'zgarishlar keltirib chiqarishi tabiiy. Eng muhimi, bu jarayonni to'g'ri boshqarish va yumshatish orqali mehnat migrantlarini "xorijdagi elchilar"ga aylantirish, ularning ikki jamiyat o'rtasida ko'prik vazifasini kuchaytirish mumkin. O'zbekistonning boy madaniy merosini vatandoshlarimiz xorijda saqlab qolishi va targ'ib etishi uchun davlat, jamoatchilik va diaspora hamkorlikda harakat qilishi zarur. Shundagina "mehnat migratsiyasi va milliy identitet" masalasini muammo sifatida emas, balki ikki tomonlama foyda keltiradigan, madaniy almashinuv va taraqqiyotga xizmat qiladigan jarayon sifatida baholash mumkin bo'ladi.

Manbalar ro'yxati

1. Times of Central Asia. (2024, June 28). Kazakhstan Replaces Russia As Destination For Uzbek Migrants. *Gazeta.uz*. (2025, January 21). Xorijdagi mehnat migrantlari soni uchdan biriga qisqardi
2. Umarova, N. (2025, July 28). Over 98,000 Uzbek Nationals Reside in South Korea. *Kursiv Media (Uzbekistan)*.
3. Reuters News. (2024, September 15). Germany signs agreement on migration with Uzbekistan (By A. Rinke, reporting from Samarkand).
4. Леденева, В. Ю., Назаров, Р. П. (2024). Социологический анализ адаптации узбекских мигрантов на московском рынке труда в условиях интеграции с ЕАЕС. *Вестник Санкт-Петербургского Университета. Социология*, 17(1), 88–102.
5. International Organization for Migration (IOM). (2024). Migration Situation Report October–December 2024: Uzbekistan. Tashkent: IOM Mission in Uzbekistan. (Available at uzbekistan.iom.int)
6. Montreuil, A., Bourhis, R. Y. (2001). Majority acculturation orientations toward "valued" and "devalued" immigrants. *Journal of Cross-Cultural Psychology*, 32(6), 698–719.
7. Aliyeva, N. L., Shin, J. J., & Kim, H. (2025). Social and Religious Challenges and Social Adaptation of Uzbek Marriage Migrant Women in South Korea. *Social Integration Research*, 6(1), 41–60.
8. Rasulov, I., Ha, J., Dhaneswara, N., & Zhumagulova, A. (2024). Uzbek Diaspora in Germany: Navigating Cultural Identity, Migration Policies, and Economic Cooperation. *Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies*, 4(2), 226–231.
9. Darieva, T. (2005). Recruiting for the Nation: Post-Soviet Transnational Migrants in Germany and Kazakhstan. In E. Kasten (Ed.), *Rebuilding Identities: Pathways to Reform in Post-Soviet Siberia* (pp. 153–172). Berlin: Dietrich Reimer Verlag.
10. Berry, J. W. (1997). Immigration, Acculturation, and Adaptation. *Applied Psychology: An International Review*, 46(1), 5–34.
11. Kadirova, Z. (2020). International Cooperation of Uzbekistan in Labor Migration. *Asia-Pacific Journal of Business Review*, 4(2), 23–33.

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE» JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Maqolani tayorlashda qo'yiladigan talablar:

1. Maqola o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 6 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 6 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новой текст начинается со следующей строки, и статья состоит из 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиатства. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 6 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].